

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**PEDAGOG XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3289-son, “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarorlari ijrosini ta’minlash hamda maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-bandning ikkinchi xatboshici O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarining (keyingi o‘rinlarda hududiy markaz deb ataladi) namunaviy tuzilmasi **2-ilovaga** muvofiq;

*(1-bandning uchinchi xatboshici O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-bandning to‘rtinchi xatboshici O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda A. Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda hududiy markazlar xodimlariga oliy ta’lim muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari tatbiq etilishini nazarda tutuvchi mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlarini bir oy muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

Bunda bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan tinglovchilar nisbatining cheklangan normativlari oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan bir nafar o‘qituvchi hisobiga talabalar soni nisbatining cheklangan normativlaridan 25 foiz past etib belgilansin.

*(4-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. Belgilab qo‘yilsinki, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi, tasarrufida maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari davlat ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar har yili 15-noyabrgacha maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning egallab turgan lavozimiga qarab kurslardan o‘tishi bo‘yicha belgilangan davriylikni inobatga olgan holda keyingi kalendar yilda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o‘qishga yuboriladigan tinglovchilar kontingentini shakllantiradi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligiga taqdim etadi.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida yuridik fanlardan dars beradigan oliy, noyuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni qayta tayyorlashdan o‘tish uchun Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazida tashkil etiladigan kasbiy qayta tayyorlash kurslariga yo‘naltiradi.

*(5-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-apreldagi 189-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.04.2021-y., 09/21/189/0303-son)*

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bir oy muddatda hududiy markazlarning moddiy-texnika bazasini xatlovdan o‘tkazsin va xatlov natijalariga asosan hududiy markazlarning bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash bo‘yicha asoslangan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligiga taqdim qilsin.

Xatlov natijalariga ko‘ra, hududiy markazlarning bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash ishlari uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari buyurtmachi etib belgilansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Xalq ta‘limi vazirligi bilan birgalikda asoslangan takliflar va hisob-kitoblarga muvofiq 2018-yilga va kelgusi yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi va Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda hududiy markazlar binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash ishlari uchun zarur mablag‘larni nazarda tutsin.

*(7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

8. Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2014-yil 15-avgustdagi 234-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2014-yil, 8-son, 88-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Q.V. Akmalov, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri I.U. Madjidov, xalq ta‘limi vaziri U.I. Inoyatov va maktabgacha ta‘lim vaziri A.V. Shin zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 28-dekabr,  
1026-son

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 822-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son)*

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrdagi 1026-son qaroriga  
2-ILOVA

## **Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining**

### **NAMUNAVIY TUZILMASI**



Xodimlarning cheklangan soni (texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar va professor-o'qituvchilardan tashqari) — 30 nafar.

\* Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining kafedralari soni hamda ularda faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilarning shtat birliklari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari kontingentidan kelib chiqib belgilanadi.

\*\* Texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar soni oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlar asosida belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrdagi 1026-son qaroriga  
3-ILOVA

## **Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom davlat hamda nodavlat maktabgacha, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Maktabgacha, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha lavozimlar va mutaxassisliklar nomenklaturasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan shakllantiriladi.

3. Nodavlat ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi (keyingi o'rinlarda hududiy markaz deb ataladi) bilan tuzilgan shartnoma asosida qayta tayyorlash va malaka oshirishdan o'tadilar.

4. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim muassasalarini tamomlagan pedagog xodimlar qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida o'qishga bazaviy ma'lumoti to'g'risidagi hujjati nostrifikatsiyadan o'tgandan keyin qo'yiladi.

5. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

buyurtma — davlat tasarrufidagi maktabgacha, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining faoliyatini tizimli tahlil qilish asosida, Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan malaka oshirish kurslaridan o'tishning 5 yilda kamida bir marta etib belgilangan davriylikiga muvofiq keyingi kalendar yil uchun oylar va o'qish yo'nalishlari bo'yicha shakllantirilgan tinglovchilarning kontingenti;

buyurtmachi — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, tasarrufida maktabgacha, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar, shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalari;

buyurtmanoma — buyurtmachi tomonidan pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursiga qabul qilish uchun Hududiy markazga taqdim etiladigan va ushbu Nizomda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan pedagog xodimlar ro'yxati;

maktabgacha, umumiy oʻrta, maktabdan tashqari taʼlim muassasalarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursi — yangi kasbiy bilimlar, mahorat, zamonaviy koʻnikmalar hamda pedagogik faoliyatni yuritish uchun malaka talablariga muvofiq oʻquv-taʼlim jarayoniga talab qilinadigan sifatni taʼminlaydigan darajada vakolatlarni nazarda tutadigan oʻqitish shakli;

malaka talablari — qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qoʻyiladigan talablar;

pedagog xodim — maktabgacha, umumiy oʻrta, maktabdan tashqari davlat va nodavlat taʼlim muassasalarida taʼlim-tarbiya faoliyatini amalga oshiruvchi pedagog va maktabgacha taʼlim muassasalari kadrlari;

pedagogning elektron portfoliosi — pedagogning shaxsiy yutuqlari, malaka darajasi va ilmiy-metodik ishlari qayd etilgan elektron toʻplam. Pedagog xodimning bilimi, kasbiy mahorati hamda oʻz ustida mustaqil ishlashi — uzluksiz malaka oshirish natijalarini baholashga koʻmaklashadi va uning kasbiy malaka darajasini aniqlashga xizmat qiladi;

tinglovchi — hududiy markaz direktori buyrugʻi bilan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursiga qabul qilingan pedagog xodim;

tyutor (pedagog oʻqituvchi-konsultant) — masofaviy malaka oshirish taʼlim jarayonida tegishli oʻquv moduli boʻyicha tinglovchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va yoʻnaltiruvchi, metodik yordam koʻrsatuvchi, oʻqish va bilish nazoratini amalga oshiruvchi subyekt;

yakuniy nazorat — yakuniy test sinovlari va bitiruv malakaviy (kursni tugatish) ishining himoyasi natijalari hamda pedagogning elektron portfoliosiga qoʻyilgan baholar yigʻindisi.

## **2-bob. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning maqsad va vazifalari**

6. Oʻquv-tarbiya jarayonini malakaviy talablarga muvofiq yuqori ilmiy-metodik darajada taʼminlash, ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, oʻqitishning interaktiv usullari boʻyicha kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga koʻmaklashish uchun zarur boʻlgan kasbiy bilim va koʻnikmalarni muntazam ravishda yangilab borish, oʻquv-tarbiya jarayonini tashkil etishning yangi tamoyillari va zamonaviy usullari, malaka talablari, normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirib borish — pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining (keyingi oʻrinlarda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari deb ataladi) maqsadi hisoblanadi.

7. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining asosiy vazifalari:

pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, koʻnikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq taʼlim sifatini taʼminlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

mustaqil fikrlash koʻnikmalarini singdirish, pedagogik nufuz va kompetentlikni rivojlantirish;

oʻz pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish koʻnikmalarini shakllantirish;

ilmiy-pedagogik ijodkorlik metodologiyasi hamda pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha bilimlarni singdirish;

oʻquv-tarbiyaviy va maʼnaviy-axloqiy ishlarni amalga oshirishda ilgʻor taʼlim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish koʻnikmalarini mustahkamlash;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish boʻyicha ilmiy-tadqiqot hamda oʻquv-metodik ishlarni olib borish koʻnikmalarini shakllantirish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining toʻgʻridan toʻgʻri shakllarini amaliyotga joriy etish;

pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni oʻzlashtirish uchun qoʻshimcha shart-sharoitlar yaratish;

oliy ta'lim muassasalari kafedralarining maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

### **3-bob. Pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi tuzilmasi**

8. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi tarkibida Maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda Muvofiqlashtiruvchi kengash deb ataladi);

Buyurtmachi;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

tasarrufida xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari;

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda vazirlik deb ataladi):

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga umumiy rahbarlik qiladi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

buyurtma asosida tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarini Davlat budjetidan moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taklif kiritadi;

keyingi kalendar yili uchun Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan malaka oshirish kurslarini, oylar, malaka oshirish shakllari va o'qish yo'nalishlari bo'yicha buyurtmani shakllantiradi va tasdiqlaydi;

hududiy markazlar tomonidan buyurtma bajarilishi yuzasidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayonini takomillashtirish mexanizmlari va uslublarini belgilaydi, tegishli o'quv-me'yoriy va normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi;

hududiy markazlarning axborot-resurs markazi va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choralarini ko'radi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari bitiruvchilarining tayyorgarligi va kompetensiyasiga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlaydi.

10. Muvofiqlashtiruvchi kengash:

maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining o'quv-metodik bazasini shakllantirishni muvofiqlashtiradi va tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni ta'minlaydi;

maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarining ilmiy muammolariga yo'naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borilishini muvofiqlashtiradi;

hududiy markazlarda dars beradigan professor-o'qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirib borish, o'quv jarayoniga xorijiy mutaxassislar, olimlar va o'qituvchilarni jalb etish ishlarini tashkil etadi;

hududiy markazlar faoliyati natijadorligini muntazam o'rganib boradi va o'rganish natijalari yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha hududiy markazlar rahbarlarining hisobotlari muhokamasini tashkil etadi, muhokama natijalari yuzasidan hududiy markazlar rahbarlari faoliyatiga baho beradi.

11. Buyurtmachi:

maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlari faoliyatining tizimli tahlilini amalga oshiradi va elektron ma'lumotlar bazasiga kiritib boradi;

malaka oshirish davriyligiga amal qilgan holda pedagog xodimning egallab turgan lavozimiga qarab keyingi kalendar yili uchun tinglovchilar kontingentini vazirlikka taqdim etadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv reja, dastur, o'quv-metodik va boshqa hujjatlarini tayyorlashda, o'quv kurslarning davomiyligi hamda tashkil etish shakllari bo'yicha vazirlikka takliflar kiritadi;

mehnat bozorning talablaridan kelib chiqqan xolda yangi mutaxassislikka talab ortishi munosabati bilan ayrim pedagoglarning qayta ixtisoslashuvi yuzasidan vazirlikka takliflar kiritadi.

12. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti:

pedagog xodimlarning kasbiy bilimi va malakasini oshirish ishlariga ilmiy-metodik jihatdan rahbarlik qiladi;

ta'lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini hisobga olib, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha namunaviy o'quv reja, dastur, o'quv-metodik va boshqa hujjatlarni ishlab chiqadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqadi;

ta'limning ilg'or shakl va usullari, zamonaviy ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayoniga joriy etish asosida pedagog va boshqa mutaxassis xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish choralarini ko'radi;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi xorijiy tajribalarni, shuningdek, eng yaxshi ta'lim muassasalarining yutuqlarini ommalashtirish asosida ilmiy asoslangan innovatsiyalarni joriy etadi.

13. Tasarrufida xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda oliy ta'lim muassasasi deb ataladi):

hududiy markaz bilan birgalikda namunaviy o'quv reja va dasturlar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha shakllari bo'yicha ishchi o'quv reja va dasturlarni, ilg'or o'qitish usullari va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yo'nalishlar bo'yicha tarqatma materiallar ishlab chiqadi;

hududiy markaz tomonidan o'quv reja va dasturlarning bajarilishini nazorat qiladi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari oliy ta'lim muassasalari bazasida o'tkazilishini tashkil etadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayoniga oliy ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, shuningdek, shartnoma asosida mamlakatning boshqa oliy ta'lim muassasalari yuqori malakali pedagog kadrlarini va xorijiy mutaxassislarni keng jalb etishni ta'minlaydi;

ilg'or pedagogik texnologiyalarning shakl va usullarini qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayoniga joriy etishga ko'maklashadi;

zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining ishchi o'quv reja va dasturlarini takomillashtiradi;

tegishli yo'nalishlar bo'yicha yetakchi xorijiy ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni o'rnatib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida onlayn shaklida malaka oshirish tizimini tashkil etishni ta'minlaydi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mashg'ulotlarining sifatini doimiy nazorat qiladi;

pedagogika sohasida erishilgan ilmiy tadqiqot natijalarini qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayoniga o'z vaqtida joriy etishni ta'minlaydi;

hududiy markaz professor-o'qituvchilarining yo'nalishlar bo'yicha ilmiy izlanishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonining zarur darajada tashkil etilishi va o'tkazilishi uchun javob beradi;

hududiy markazlarda tashkil etiladigan konferensiya, forumlar va ilmiy-amaliy anjumanlarning o'tkazilishiga ko'maklashadi;

hududiy markaz professor-o'qituvchilari uchun dolzarb mavzular bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etadi;

hududiy markazlar faoliyatini har olti oy yakunlari bo'yicha oliy ta'lim muassasasi kengashida muhokama qiladi va ularning faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalarni vazirlikka taqdim etadi.

14. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari:

xalq ta'limi xodimlarining metodik ehtiyojlarini to'laqonli qondirish maqsadida qayta tayyorlash va malaka oshirishning ilg'or shakl va usullarini joriy etadi;

xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot hamda o'quv-metodik ishlarni olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

masofadan o'qitish usullari asosida xalq ta'limi muassasalari pedagoglari uchun tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqadi, kurslardagi o'quv mashg'ulotlarini onlayn va offlayn shakllarida tashkil etishni yanada takomillashtiradi;

tegishli yo'nalishlar bo'yicha fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishni tashkil etadi hamda ular bo'yicha zamonaviy metodik, axborot-ma'lumotnoma bazasini yaratadi;

buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlikda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini uzluksiz takomillashtirib boradi;

o'quv-tarbiya jarayonining amaliyot bilan o'zaro samarali hamkorligini ta'minlaydi, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini sayyor mashg'ulotlar orqali zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ta'lim muassasalarida tashkil etadi;

innovatsion ilmiy yutuqlarni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etadi.

#### **4-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirishning turlari va shakllari**

15. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish to'g'ridan to'g'ri (ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish) va bilvosita (ta'lim dasturlarisiz o'qitish) shakllari bo'yicha tashkil etiladi.

16. Pedagog xodimlarning malakasini oshirishning quyidagi to'g'ridan to'g'ri malaka oshirish shakllari qo'llaniladi:

malaka oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida o'qitish;

“ustoz-shogird” usuli bo'yicha o'qitish;

mustaqil o'qib bilim orttirish;

masofaviy ta'lim;

stajirovka shaklida tajriba orttirish.

17. Malaka oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida o'qitish — hududiy markazda yakka tartibdagi topshiriqlar yoki aniq yo'naltirilgan dasturlar asosida, ta'limning tegishli turi o'quv-tarbiya jarayonining monitoringi natijalarini va kadrlar tayyorlash sifatini hisobga olib, malaka talablariga, shuningdek, ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan fanlar bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish.

Malaka oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida o'qitish 2+2 yoki 3+1 sxemalari bo'yicha (tegishli ravishda 50 yoki 75% — yashash joyi bo'yicha mustaqil ravishda bilim

orttirish, 50 yoki 25% — bevosita ta'lim muassasasida) masofadan malaka oshirish shaklida tashkil etilishi mumkin. O'qitishning bunday shakllari axborot uzatishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va pedagog xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha maxsus virtual kurslar mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi.

18. "Ustoz-shogird" usuli bo'yicha o'qitish — tanlov asosida saralab olingan, mamlakatda (mintaqada), ilmiy va pedagogik jamoatchilik o'rtasida o'zining yuqori natijalari, kasbiy faoliyatining yuqori ko'rsatkichlari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'yicha o'z maktabi bilan mashhur bo'lgan yuqori malakali pedagog-ustozlar rahbarligida tegishli ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha pedagog xodimlarning malakasini maqsadli oshirish.

19. Mustaqil o'qib bilim orttirish — pedagog xodimlar tomonidan kasb mahoratini oshirishga, kasbiy layoqat va ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning o'z lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni uzluksiz ravishda mustaqil o'zlashtirishini nazarda tutadi.

Mustaqil ravishda bilim olish ta'lim muassasalari pedagog xodimlari uzluksiz ta'limining (malaka oshirishining) ajralmas tarkibiy qismidir, u axborot texnologiyalarining egallab olinishini rag'batlantiradi. Mustaqil ta'lim, belgilangan tartibda, malaka oshirishning tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha amalga oshirilgan bo'lsa, bilimlarning yakuniy nazorati natijalari asosida pedagog xodimga hududiy markaz tomonidan malaka oshirganlik haqida belgilangan namunadagi hujjat (sertifikat) beriladi.

Malaka oshirishning ushbu shakli ta'lim dasturini ta'lim oluvchi tomonidan tuzilgan va hududiy markaz tomonidan tasdiqlangan yakka tartibdagi reja asosida mustaqil o'qish vositasida o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Mustaqil o'qib bilim orttirish shaklida malaka oshirish barqaror yuqori professional reytingga ega bo'lgan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarini egallagan, o'zini o'zi kamol toptirish jarayoniga tanqidiy va ijodiy yondasha oladigan tinglovchilar uchun tavsiya etiladi.

20. Masofaviy ta'lim — onlayn (videoma'ruzalar, maslahatlar, nazorat turlarini masofadan turib real vaqt rejimida o'tkazish) va offlayn (masofaviy ta'lim tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) shaklida amalga oshiriladi.

21. Stajirovka shaklida tajriba orttirish — ta'lim muassasalarida, ta'limni boshqaruv organlarida pedagog xodimlarni ta'lim va uni boshqarish sohasidagi fan va texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishni, rahbarlik salohiyatini oshirishni nazarda tutadi.

Stajirovka xizmat safariga yuborish tarzida amalga oshiriladi.

Stajirovka tamom bo'lgandan keyin kadrlarga stajirovka muddati ko'rsatilgan holda ularning stajirovkadan o'tganligi to'g'risida tajriba orttirilgan muassasa rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ma'lumotnoma beriladi.

22. Qisqa muddatli kurslar malaka oshirish ta'lim dasturlari asosida tashkil etilgan innovatsion menejment, pedagogik yoki axborot texnologiyalarini o'zlashtirish kurslarida o'qish bo'lib pedagog xodimlarning malakasini oshirishning to'g'ridan to'g'ri shakllari tarzida amalga oshiriladi. Ushbu kurslar majburiy bo'lmagan holda pedagog xodimlarning kasbiy o'sishiga ko'maklashadi.

Mazkur kurslarning ta'lim dasturlari malaka oshirish ta'lim dasturlarining muayyan qismini (fan bloklari yoki modullarini) qamrab olgan va hududiy markaz tomonidan (yoki u bilan hamkorlikda) ushbu kurslar o'tkazilgan bo'lsa, kurslarni tamomlagandan keyin berilgan sertifikatlarida ko'rsatilgan o'qish soatlari hajmi navbatdagi malaka oshirish bo'yicha zarur soatlarning jami hajmiga kiradi (hisobga olinadi).

23. Pedagog xodimlarning malakasini oshirishning bilvosita shakllari quyidagilardan iborat: ochiq o'quv mashg'ulotlari;

ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlarda, konferensiyalarda, avgust o'qishlarida ma'ruzalar bilan qatnashish.

24. Ochiq o'quv mashg'ulotlari — zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'qitishning interaktiv usullari qo'llanilgan holda akademik guruhlarda jadval bo'yicha o'tkaziladigan oldindan e'lon qilingan muammo yoki innovatsiya mavzusi bo'yicha mashg'ulotdir.

Ochiq o'quv mashg'ulotlariga tegishli sohadagi tajribali pedagoglar, olimlar va mutaxassislar taklif etiladi.

Ushbu mashg'ulotlarning sifati oliy ta'lim muassasasi va hududiy markaz kafedralarining qo'shma yig'ilishida muhokama qilinadi.

25. Ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, avgust o'qishlarida ma'ruzalar bilan qatnashish — ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolari, shuningdek o'quv jarayonining yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogika fani va amaliyoti, o'qitish metodologiyasi va texnologiyasining muhim masalalari bo'yicha ilmiy va ilmiy-metodik ma'ruza (axborot)lar bilan chiqishlari orqali ta'minlanadi.

26. Malaka oshirishning bilvosita shakllari pedagog kadrlarning navbatdagi malaka oshirish kursigacha bo'lgan davrda o'z ustida mustaqil ishlashi natijalarini baholash va uning kasbiy malaka darajasini aniqlashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagog kadrlarni malaka toifalariga attestatsiya qilish jarayonida hisobga olinadi.

27. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

asosiy ishdan bo'shagan holda;

asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usul);

asosiy ishdan bo'shamagan holda (masofaviy ta'lim).

28. Asosiy ishdan bo'shagan holda va asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usulda) malakani oshirish oliy ta'lim muassasasi va hududiy markaz bazasida o'tkaziladi.

29. Asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usulda) malaka oshirish kursi umumiy davomiyligining 50 yoki 25 foizi — hududiy markazda auditoriya mashg'ulotlariga ajratiladi. Kursning qolgan qismi maktabgacha, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bazasida yakka tartibdagi topshiriqlarni bajargan holda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishini nazarda tutadi. Amaliy mashg'ulotlarni asosiy ish joyida o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Amaliy mashg'ulotlarning har bir o'zlashtirilgan moduli bo'yicha test sinovlari, referat topshirish, amaliyot bo'yicha hisobot va shu kabilar shaklidagi nazorat nazarda tutiladi.

30. Asosiy ishdan bo'shamagan holda o'qitishning masofaviy ta'lim shakli qo'llaniladi.

31. Quyidagilar qayta tayyorlashning asosiy turlari hisoblanadi:

pedagogik qayta tayyorlash;

kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv).

32. Pedagogik qayta tayyorlash — oliy ma'lumotli nopedagog mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'quv-tarbiya jarayonining talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlash.

33. Kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv) — oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar tomonidan ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'qitishning talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada o'quv fani yoki kurs bo'yicha pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli hajmda yangi kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Pedagog xodimlarni kasbiy qayta tayyorlash, qoida tariqasida, kadrlar tayyorlash o'quv rejalariga yangi o'quv fanlari yoki kurslar joriy etilishi, kadrlarning buyurtmachilari yoki mehnat bozorining talablari bilan belgilanadigan ayrim pedagoglarning qayta ixtisoslashuvi yoki yangi mutaxassislikka ega bo'lishi munosabati bilan hududiy markaz tashabbusiga ko'ra shartnoma asosida tashkil etiladi.

34. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash asosiy ishdan ajralgan va ajralmagan holda amalga oshiriladi.

35. Ta'lim dasturlarining mazmuni va o'qitishning davomiyligi malaka talablarida ko'rsatilgan tartibda belgilanadi. Qayta tayyorlashdan muvaffaqiyatli o'tgan pedagog xodimlarga belgilangan namunadagi diplom beriladi.

36. Qayta tayyorlashga ikkinchi oliy ta'limni olish sifatida qaralmaydi. Qayta tayyorlash natijasida beriladigan hujjat (diplom) faqat muayyan lavozimda faoliyat ko'rsatish yoki muayyan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib borish huquqini beradi.

37. Hududiy markazda qayta tayyorlash kurslari buyurtmachining buyurtmanomasi asosida, malaka talablariga, shuningdek, ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.

38. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari qo'llaniladi: ma'ruza, amaliy mashg'ulot, interaktiv seminarlar, trening, ko'chma mashg'ulot, tajriba almashish, mustaqil o'qish, laboratoriya ishi, bitiruv malakaviy ishini (kursni tugatish ishini) himoya qilish.

Ayrim o'quv mashg'ulotlari oliy ta'lim muassasasining o'quv laboratoriya bazasida tashkil etiladi.

### **5-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirishning davomiyligi va o'quv yuklamasining hajmi**

39. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish davomiyligi uni tashkil etish shakllariga hamda pedagog xodimning kasbiy malaka darajasini va individual kasbiy ehtiyojini hisobga olgan holda buyurtmachi tomonidan belgilanadigan talablarga bog'liq holda aniqlanadi.

Pedagog xodimlar 5 yilda kamida bir marta malaka oshirishlari shart.

40. Malaka oshirishning to'g'ridan to'g'ri shakllari uchun auditoriya mashg'ulotlarining va mustaqil ishlarning eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

41. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash dasturlarini o'zlashtirish muddati o'quv rejasiga kiritilgan fanlar soni hamda ularning yuklamalari hajmidan kelib chiqib belgilanadi va u 16 haftadan (576 soatdan) kam bo'lmasligi shart. Auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ishlarning haftalik yuklamasi eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

42. Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari 80 daqiqa davom etadi, o'quv mashg'ulotlari oralig'idagi tanaffus kamida 10 daqiqani tashkil etadi.

### **6-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o'tkazish**

43. Malaka oshirish kurslari vazirlik tomonidan tasdiqlangan buyurtma asosida hamda buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida hududiy markazlarda tashkil etiladi.

44. Hududiy markazlarga taqdim etiladigan buyurtmanomada xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi, qachon va qaysi ta'lim muassasasini bitirganligi, diplom bo'yicha mutaxassisligi, pedagogik staji, ish joyi, lavozimi, oxirgi marta malaka oshirgan vaqti va sertifikat raqami, malaka oshirish yo'nalishi va malaka oshirishga keladigan vaqti (oyi) ko'rsatilgan holda taqdim etiladi.

45. Malaka oshirish kurslaridan o'tish jadvali har yili 15-dekabrqa qadar vazirlik tomonidan tasdiqlanadi hamda buyurtmachilarga yetkaziladi.

46. Buyurtmachilar yuqoridagi jadvalga asosan tegishli pedagog xodimlarning hududiy markazlarga o'z vaqtida o'qishga yetib borishlarini ta'minlaydilar.

47. Joriy yilda buyurtmaga kiritilmagan pedagog xodimlar hududiy markaz bilan tuzilgan shartnoma asosida malaka oshirish kurslaridan o'tishlari mumkin.

48. Shartnoma asosidagi pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari buyurtmachi talabi va mehnat bozorining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hududiy markazda tashkil etiladi.

Hududiy markaz buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish uchun oliy ta'lim muassasasi orqali vazirlikka buyurtmanoma bilan murojaat qiladi.

49. Shartnoma asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish uchun ushbu Nizomning **44-bandida** belgilagan hujjatlar talab etiladi.

50. Shartnoma asosida qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

qayta tayyorlash kurslarida o'qishi rejalashtirilayotgan tinglovchilar (familiyasi, ismi va otasining ismi, qachon va qaysi ta'lim muassasasini bitirganligi, diplom bo'yicha mutaxassisligi, pedagogik staji) haqida ma'lumot;

qayta tayyorlash kurslarini o'tkazish jadvali;

qayta tayyorlash kurslari uchun metodik ta'minotning (o'quv-mavzu reja, dasturlar, majmualar, ishlanmalar va hokazolar) mavjudligi haqida ma'lumot;

qayta tayyorlash kurslarini o'tkazish uchun yetarli bo'lgan ilmiy-pedagogik salohiyatning (ma'ruzachi va amaliy darslarni olib boruvchi professor-o'qituvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, asosiy ish joyi) mavjudligi haqida ma'lumot;

qayta tayyorlash kurslarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika bazasining (auditoriya fondi, kompyuter xonalari, fan xonalari, kutubxona va hokazolar) mavjudligi haqida ma'lumot.

51. Hududiy markazda qayta tayyorlash kurslari buyurtmachi tomonidan taklif etiladigan yo'nalishlardan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

52. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish hududiy markaz direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish to'g'risidagi buyruq kurslar boshlanishi sanasidan boshlab 3 kun mobaynida rasmiylashtiriladi.

53. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari boshlanishi sanasidan boshlab uch kun mobaynida kelmagan tinglovchilar, kelmaslikning sabablaridan qat'i nazar, kurslarga qo'yilmaydi.

54. Pedagog xodimlar malaka oshirish kurslariga uzrli sabablarga ko'ra o'z vaqtida kelmagan bo'lsa, ularga o'qishning tegishli yo'nalishi bo'yicha navbatdagi malaka oshirish kurslarida o'qishga ruxsat beriladi.

55. Hududiy markaz qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilarning o'z vaqtida kelmaganligi haqida tegishli buyurtmachiga xabar beradi.

56. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'quv jarayoni tegishli yo'nalishlar bo'yicha tasdiqlangan namunaviy o'quv rejasi va dasturlarga muvofiq ishlab chiqilgan ishchi o'quv rejasi va dasturlar asosida amalga oshiriladi hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Namunaviy o'quv rejasi va dasturlar fan, texnika, texnologiyalar va ishlab chiqarishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida har yili takomillashtiriladi.

57. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayoniga jalb etilgan tinglovchilari akademik guruhlariga bo'linadi. Bunda, akademik guruhlar kamida 25 kishini tashkil etadi. Akademik guruhlarini shakllantirishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining yo'nalishi, o'quv reja va dasturlari, pedagog xodimlarning bazaviy ma'lumoti va egallab turgan lavozimlari, shuningdek, buyurtmachining talablari hisobga olinadi.

Malaka oshirish kurslarida tinglovchilar kontingenti yetarli bo'lmagan yo'nalishlarda, istisno tariqasida, hududiy markaz direktori buyrug'i bilan malaka oshirish masofaviy ta'lim shaklida amalga oshirilishi mumkin.

58. Tinglovchilarning o'zlashtirishini baholash tizimi vazirlik tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

59. Hududiy markazning rahbar va professor-o'qituvchilari vazirlik tomonidan belgilanadigan tartibda, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida muntazam ravishda malaka oshiradilar.

60. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida mashg'ulotlar o'tkazish uchun hududiy markaz professor-o'qituvchilari, oliy ta'lim muassasasining yetakchi pedagog kadrlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining yetakchi mutaxassislari, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengash a'zolari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar jalb etiladilar.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini o'tkazish uchun jalb etiladigan professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

61. Hududiy markaz xodimlariga oliy ta'lim muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari tatbiq etiladi. Bunda, bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan tinglovchilar nisbatining cheklangan normativlari oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan bir nafar o'qituvchi hisobiga talabalar soni nisbatining cheklangan normativlaridan 25 foiz past etib belgilanadi.

62. Hududiy markaz professor-o'qituvchilari tarkibiga quyidagi talablar qo'yiladi:

qayta tayyorlash va malaka oshirishga qo'yiladigan malaka talablari asosida tinglovchilar bilan o'quv-tarbiya ishlarini olib borish;

yuksak shaxsiy sifatlarning (talabchanlik, xolisonalik, haqqoniylik, xushmuomalalik) mavjudligi;

ta'lim berishda (o'qitishda) kasbiy mahoratning mavjudligi;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslarini, pedagogika fanining asosiy yo'nalishlarini, fanlararo aloqalarni, notiqlik mahorati asoslarini, uzluksiz ta'lim atamaları va tushunchalarini, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirishga qo'yiladigan malaka talablarini bilish;

ta'lim jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlash, tinglovchilarning tashabbuskorligini, ijodiy mahoratini, ularning ilmiy tadqiqotlarga intilishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish ko'nikmalarining mavjudligi;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoni mazmunini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot hamda o'quv-metodik ishlarni olib borishi.

63. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, ularni talab darajasida o'tkazish, ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlash hamda tinglovchilarning yashashi uchun sharoit yaratish (hududiy markazda tinglovchilar turar joyi mavjud bo'lsa) tegishli hududiy markaz direktori zimmasiga yuklatiladi.

### **7-bob. Malaka oshirishning masofaviy shaklini tashkil etish va o'tkazish**

64. Malaka oshirishning masofaviy shakli (keyingi o'rinlarda masofaviy ta'lim shakli deb ataladi) vazirlik bilan kelishgan holda, maxsus virtual kurslar faoliyat ko'rsatadigan, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida axborotlarni uzatish va qabul qilish uchun zarur baza bilan jihozlangan hamda tegishli moddiy-texnika, o'quv-metodik bazaga va xodimlar salohiyatiga ega bo'lgan hududiy markazlar tomonidan tashkil etiladi.

65. Masofaviy ta'lim shakli ishchi o'quv dasturlar asosida amalga oshiriladi.

66. Masofaviy ta'lim shaklidagi malaka oshirish kursining davomiyligi hududiy markazda o'qishning tegishli kursi akademik soatlarida belgilanadi, bunda kalendar muddatlar akademik muddatlardan ortiq bo'lishi mumkin.

67. Masofaviy ta'lim shakli bo'yicha kurslarga yuqori malakali, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zarur darajada qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan pedagog xodimlar qabul qilinadi.

68. Masofaviy ta'lim shakli bo'yicha o'qitish jarayonida tinglovchilar faoliyati, ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish va yo'naltirish, hududiy markaz professor-o'qituvchilari tarkibidan hududiy markaz direktorining buyrug'i bilan birlashtiriladigan tyutor (o'qituvchi-konsultant) tomonidan amalga oshiriladi.

Tinglovchilar bilan doimiy aloqa bog'lash, tinglovchilarga zarur metodik yordam berish, yakka tartibdagi mashg'ulotni bajarish yuzasidan nazoratni amalga oshirish va tinglovchilar bilimlarini baholash tyutorning vazifalariga kiradi. Tyutor yakka tartibdagi topshiriqning tinglovchi tomonidan bajarilishi xolisona baholanishi uchun javob beradi.

Tyutor bilan aloqa elektron pochta, telefon va boshqa elektron aloqa vositalari yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, tyutor bilan aloqa kontakt-sessiyalar (bevosita yuzma-yuz muloqot) tarzida amalga oshirilishi mumkin (kursning o'quv rejasida belgilangan muddatlarda).

### **8-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tinglovchilari**

69. Buyurtmaga kiritilgan malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun o'qishning barcha davrida ularning asosiy ish joyi bo'yicha egallagan lavozimi va o'rtacha ish haqi saqlanadi, ularning o'quv yuklamasi esa boshqa a'zolar o'rtasida taqsimlanadi.

Ishdan ajralgan holda hududiy markazlarga malaka oshirishga boshqa hududlardan yuborilgan tinglovchilar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'qishga borish va undan qaytish bo'yicha bir martalik yo'l haqi xarajatlari ularni yuborgan tomon hisobidan qoplanadi.

70. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tinglovchilari hududiy markazdagi o'quv laboratoriya, axborot-resurs markazlari, sog'lomlashtirish va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalaridan foydalanish huquqiga ega.

71. Tinglovchi quyidagi hollarda tinglovchilar safidan chetlashtirilishi mumkin:

o'z xohishiga binoan;

o'quv intizomini va hududiy markazning ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun;

o'quv mashg'ulotlarini uzrli sabablarsiz 18 akademik soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

ta'lim dasturlarini o'zlashtirmaganligi uchun;

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);

sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

vafot etganligi sababli.

72. Tinglovchi malaka oshirish kursidan chetlatilganda, unga hududiy markaz tomonidan sabablari ko'rsatilgan holda ma'lumotnoma beriladi, shuningdek, bu haqda uni malaka oshirishga yuborgan buyurtmachiga xabar beriladi.

Malaka oshirish kursidan chetlatilgan yoki yakuniy nazoratdan o'ta olmagan buyurtma asosida kelgan tinglovchi, keyingi o'quv yili uchun buyurtmachi tomonidan unga ish haqi saqlanmagan holda, ta'til berilishi asosida buyurtmanomaga kiritiladi.

Malaka oshirish kurslariga qayta yuborilgan pedagog xodim o'qish yakunlari bo'yicha yakuniy nazoratdan takroran o'tmagan yoki asosiy ish joyi bo'yicha belgilangan muddatda malaka oshirish kurslaridan o'tmagan taqdirda, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan qat'i nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi. Ular o'z pedagogik faoliyatini ta'lim muassasalarida davom ettirishi uchun hududiy markaz bilan bevosita tuzilgan shartnoma asosida o'z malakalarini oshirgan bo'lishlari talab qilinadi.

73. Qayta tayyorlash kursi ta'lim dasturlarini o'zlashtirish yuzasidan yakuniy nazoratdan qoniqarsiz baho olgan tinglovchilarga kamida 1 oydan so'ng yakuniy kursni tugatish ishini qayta himoya qilish imkoniyati beriladi.

### **9-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining bitiruv malakaviy ishi (kursni tugatish ishi) himoyasi**

74. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari o'qishni tugatgandan keyin, Yakuniy attestatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladigan bitiruv malakaviy ishini (kursni tugatish ishi) (keyingi o'rinlarda bitiruv malakaviy ishi deb ataladi) himoya qilishdan o'tishlari kerak.

Yakuniy attestatsiya komissiyalari hududiy markaz direktorining buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasasi rektori bilan kelishgan holda tashkil etiladi.

75. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga quyidagilar asosida bitiruv malakaviy ishini himoya qilishiga ruxsat beriladi:

yakuniy test sinovlarining ijobiy natijalari;

pedagogning elektron portfoliosi (kasbiy faoliyati monitoringi) baholari.

76. Qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari talablarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchilarga tegishli ravishda davlat namunasidagi quyidagi hujjatlar beriladi:

malaka oshirish haqida davlat namunasidagi sertifikat — kamida 4 hafta (144 soat) hajmidagi ta'lim dasturlarini o'tagan tinglovchilar uchun;

qayta tayyorlash haqida davlat namunasidagi diplom — kamida 16 hafta (576 soat) hajmidagi ta'lim dasturlarini o'tagan tinglovchilar uchun.

Yakuniy nazorat natijasida o'qitish dasturini o'zlashtirish yuzasidan qoniqarsiz baho olgan tinglovchilarga o'quv kursini tamomlaganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma beriladi.

Qayta tayyorlash haqida davlat namunasidagi diplom va malaka oshirish haqida davlat namunasidagi sertifikat belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

77. Pedagog xodimlarning malaka toifalarini olishi (o'zgartirishi) va egallab turgan lavozimlariga mosligi attestatsiyadan o'tkazishda ular qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kurslaridan o'tganligi to'g'risida hujjatning (diplom, sertifikat) mavjudligi talab etiladi.

### **10-bob. Hududiy markazlarni moliyalashtirish**

78. Hududiy markazlar faoliyatini moliyalashtirish quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi: hududiy markazni joriy ta'minlashga hamda tasdiqlangan buyurtmaga muvofiq ajratiladigan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari;

shartnoma asosida ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan mablag'lar;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun jalb etiladigan grantlar va xorijiy kreditlar mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

79. Shartnoma asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari uchun xarajatlar smetasi hududiy markaz tomonidan tuziladi va belgilangan tartibda vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Xarajatlar smetasida kursning o'quv rejasi va dasturida nazarda tutilgan barcha dars mashg'ulotlari uchun to'lanadigan soatbay haq, hududiy markazning moddiy-texnika ta'minoti, kursni tashkil etish va o'tkazishga jalb etilgan (rahbar, pedagog va texnik) xodimlarga to'lanadigan ish haqi, ularni rag'batlantirish, shuningdek, to'lanadigan soliqlar uchun mablag'lar nazarda tutiladi.

Shartnoma asosida tashkil etiladigan kurslarda o'qish uchun tinglovchi tomonidan to'lanadigan mablag' ushbu kurslarni o'tkazish uchun sarflanadigan xarajatlar hajmidan kelib chiqqan holda (xarajatlar smetasidagi jami xarajatlarni tinglovchilar soniga bo'lish orqali) hisoblab chiqiladi.

Qayta tayyorlash kurslarida o'qish uchun hududiy markaz bilan buyurtmachi o'rtasida belgilangan tartibda to'lov kontrakti (shartnoma) rasmiylashtiriladi, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

### **11-bob. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ta'lim jarayonining mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar**

80. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ta'lim jarayonining mazmuni va sifatiga qo'yiladigan malaka talablari "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq belgilanadi va ularda ta'lim jarayonini tashkil etishni, uning mazmunini, metodik ta'minlashni, sifat va samaradorligini oshirishni takomillashtirishga doir talablar qo'yiladi.

81. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ta'lim dasturi mazmuniga qo'yiladigan talablar yo'nalishlar bo'yicha zarur hamda yetarlicha bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish hisobga olingan holda, pedagog xodimlarning malaka tavsiflariga qat'iy muvofiqlik tamoyillari asosida belgilanadi.

82. Ta'lim dasturi fan, texnika va pedagogik texnologiyalarning so'nggi yutuqlariga muvofiq tashkil etilishi hamda ta'lim turlari o'rtasida uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash talablariga mos kelishi kerak.

Ta'lim dasturida ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash va ularni o'zlashtirish nazarda tutilishi lozim.

O'quv rejasi va dasturlarni tuzish, ekspertizadan o'tkazish, tasdiqlash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi ta'lim jarayoniga joriy etish tartibi vazirlik tomonidan belgilanadi.

### **12-bob. Yakunlovchi qoida**

83. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog  
xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada  
takomillashtirish**

**CHORA-TADBIRLARI DASTURI**

<b>№</b>	<b>Tadbirlar mazmuni</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
1.	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi hamda oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarining ustavlarini tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash.	2018-yil 5-yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
2.	Maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash.	2018-yil 5-yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi
3.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari uchun o'quv reja va fan dasturlarini tasdiqlash hamda uning o'quv-metodik ta'minoti yaratilishini ta'minlash.	2018-yil 5-yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi
4.	Oliy ta'lim muassasalarining kafedralarini tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlariga birlashtirish, shuningdek, kafedralarning yetakchi professor-o'qituvchilarini oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlardagi tegishli yo'nalish bo'yicha o'quv jarayoniga jalb etish choralarini ko'rish.	2018-yil 10-yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
5.	Oliy ta'lim muassasalarida mavjud axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, jumladan videokonferensiya qurilmalaridan foydalanish asosida onlayn shaklida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish sharoitlarini yaratish choralarini ko'rish.	2018-yil 10- yanvardan boshlab doimo	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
6.	Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tinglovchilariga oliy ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazidagi	2018-yil 10- yanvardan boshlab doimo	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

	o'quv, ilmiy, badiiy adabiyotlar va elektron resurslardan keng foydalanish imkoniyatini yaratish.		
7.	Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tinglovchilarining ko'chma mashg'ulotlarini oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedralarida o'tkazish sharoitlarini hamda kafedralardagi o'quv, ilmiy laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish.	2018-yil 15-yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
8.	Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari pedagog kadrlarini kafedralar professor-o'qituvchilarining ochiq darslarida, shuningdek, xorijiy mutaxassislar, olimlar va o'qituvchilar ishtirokida o'tkaziladigan ma'ruza va mahorat darslarida qatnashishlarini tizimli yo'lga qo'yish.	o'quv yili davomida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
9.	Oliy ta'lim muassasalari kafedralari professor-o'qituvchilarining ilmiy faoliyatini maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim jarayonlarining ilmiy muammolariga yo'naltirish va oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarining pedagog kadrlariga ilmiy-metodik rahbarlik qilish.	doimo	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
10.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining bitiruv malakaviy ishi (kursni tugatish ishi) himoyasi Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibiga oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedrasini a'zolarini kiritish tartibini joriy etish choralarini ko'rish.	2018-yil 25-yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
11.	Maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Mazkur elektron ma'lumotlar bazasining yangilab borilishini tizimli yo'lga qo'yish.	2018-yil 15-aprel doimo	Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi
12.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan muvaffaqiyatli o'tgan pedagog xodimlarning joylardagi kasbiy faoliyati samaradorligi monitoringini amalga oshirish elektron tizimini joriy etish.	2018-yil 15-may	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi
13.	Maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlari bo'yicha Maktabgacha ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi tizimida shakllantirilgan elektron ma'lumotlar bazasini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan muvaffaqiyatli o'tgan pedagog xodimlarning joylardagi kasbiy faoliyati	2018-yil 1-iyun	Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

	samaradorligi monitoringini amalga oshirish elektron tizimi bilan integratsiyalashuvini ta'minlash.		
14.	Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini masofadan o'qitish usullarini takomillashtirish uchun yagona dasturiy platformani, uning elektron o'quv resurslarini hamda nazorat tizimini shakllantirish va amaliyotga joriy etish.	2018-yil 5-iyul	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi
15.	Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarini maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari amaliyotida foydalanilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari bilan uzluksiz ta'minlab borish.	doimo	Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2017-y., 09/18/1026/0497-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son; 08.04.2021-y., 09/21/189/0303-son)*